

**“O‘ztransgaz” AJda 2023-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT**

“O‘ztransgaz” AJ komplayens nazorat bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan Qaror va Farmonlar, Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tomonidan yuborilgan ko‘rsatmalar va ichki idoraviy normativ xujjatlar asosida amalga oshirildi.

Hozirgi kunda Markaziy apparatda 3 ta shtat birligi va xududiy va tarkibiy tuzilmalarda 14 shtat birligi tashkil etilgan. Shundan Markaziy apparat 2 ta, xududiy va tarkibiy tuzilmalarda 7 ta shtat birligida vakant lavozimlar mavjud.

Komplayens nazorat bo‘limi tomonidan quyidagi xujjatlar qabul qilingan:

- “O‘ztransgaz” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati;
- “O‘ztransgaz” AJ va tashkiliy tuzilmalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Nizomi;
- “O‘ztransgaz” AJ va tashkiliy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslibiyoti;
- “O‘ztransgaz” AJ va tashkiliy tuzilmalarida korrupsiyaviy havf-xatarlarni baholash uslibiyoti;
- “O‘ztransgaz” AJ va tashkiliy tuzilmalarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma;
- “O‘ztransgaz” AJ va tashkiliy tuzilmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma;
- “O‘ztransgaz” AJ va tashkiliy tuzilmalari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma;
- “O‘ztransgaz” AJ ijroiya apparati va tarkibiy tuzilmalari xodimlari uchun odob-axloq qoidalarini joriy etish to‘g‘risida Qoidalari;
- “O‘ztransgaz” AJ va tashkiliy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom;
- “O‘ztransgaz” AJ va tashkiliy tuzilmalari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tqazish bo‘yicha Reglament;
- “O‘ztransgaz” AJ va tashkiliy tuzilmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va

ko'rib chiqish Reglamenti qabul qilingan va Jamiyatning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yil kungi PQ-240-sonli "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qaroriga asosan havf-xatarlarni baholash tartiblari amalga oshirildi va "E-anticor.uz" platformasiga joylashtirildi. Baholash jarayonida jami 5 ta urta darajali xavf-xatar aniqlangan va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda "E-anticor.uz" platformasiga ma'lumotlar qayta joylashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan xamkorlikda havf-xatarlar xaritasini tasdiqlash bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Hisobot davrida ishga yangi qabul qilingan 56 nafar xodimdan va yuqori lavozimga tayinlangan 16 nafar xodimlardan manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasi olinib tahlil qilindi. Tahlil jarayonida manfaatlar to'qnashuvi aniqlanmadi. 2023 yilga qadar ishga qabul qilingan xodimlardan manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasi 2022 yilning dekabr oyida olingan.

Jamiyat tomonidan tuziladigan barcha xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish shartlari kiritilgan. Tekshiruvlar davomida salbiy xulosa berilgan kontragentlar tender savdolaridan chiqarib yuborilib, ular bilan shartnomalar tuzilmagan.

Hisobot davrida jami 155 kontragentlar tekshirilib, shundan 150 tasiga ijobiy baho berilgan va 5 ta kontragentlarga salbiy hulosalar berilgan.

Hisobot davrida markaziy appartga 56 nafar nomzodlarning xujjatlari ko'rib chiqilgan, tekshiruvlardan so'ng ishga qabul qilingan.

Jamiyatda yangi qabul qilingan 56 nafar xodim Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki tartib-taomillar bilan tanishtirildi. Bundan tashqari 8 nafar xodim 22 marotaba Korrupsiyaga Qarshi kurashish Agentligi, Hisob Palatasi va Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan amaliy o'quv -seminarlarda ishtirok etdi.

Jamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan barcha xujjatlar xodimlar tomonidan mustaqil o'rganishlarini ta'minlash maqsadida mazkur xujjatlavr Jamiyatning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan.

2023 yil davomida "O'ztransgaz" AJ Komplayens-nazorat bo'limi tomonidan jami 22 ta (18 tasi – 2023 yilda va 4 tasi – 2022 yilda kelib tushgan) xodimlarning noqonuniy xatti-xarakatlari yuzasidan murojaat ko'rib chiqilgan. Murojaatlarning 2 tasi Andijon viloyatidan, 7 tasi Toshkent shahridan, 3 tasi

Qashqadaryo viloyatidan, 4 tasi Farg‘ona viloyatidan, 3 tasi Samarqand viloyatidan, 1 tasi Surxandaryo viloyatidan, 1 tasi Navoi viloyatidan va 1 tasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi kelib tushgan. Murojaatlarning 5 tasi Prezident “Portali”, 8 tasi Prezident veb-sayti, 1 tasi Prezident Call markazi, 5 tasi Prezident ishonch telefoni, 1 tasi “O‘ztransgaz” AJ rasmiy veb-sayti va 2 tasi pochta orqali kelib tushgan.

Ko‘rib chiqilgan murojaatlarning 3 tasi bo‘yicha xizmat tekshiruvini o‘tqazilgan va qonuniy chora ko‘rish uchun huquqni muxofaza qilish idoralariga yuborilgan, 17 tasi bo‘yicha tushuntirish berilgan va 2 tasi qanoatlantirilgan.

Murojaatlarda qayd etilgan xolatlar bo‘yicha aloqador shaxslar bilan profilaktik suxbatlar amalga oshirildi.

Hisobot davrida komplayens nazorat bo‘limi tomonidan muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-81 va PQ-240 Qarorlari talablari ijrosini ta‘minlash bo‘yicha monitoring tadbirlari amalga oshirildi. Bundan tashqari Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib taomillariga rioya etilishi ustidan nazorat tadbirlari amalga oshirildi va 21 ta xizmat tekshiruvini o‘tqazildi.

Hisobot davrida komplayens nazorat bo‘limi tomonidan 23 ta xizmat tekshiruvini amalga oshirildi. Xizmat tekshiruvini davomida to‘plangan xujjatlar va xulosa natijalarining 15 tasi qonuniy chora ko‘rish uchun huquqni muxofaza qilish idoralariga yuborildi va oltita xolat bo‘yicha bartaraf etish bo‘yicha ko‘rsatma berildi. Xizmat tekshiruvini natijasida 72 nafar xodimga intizomiy jazo choralari (64 ta xayfsan va 8 nafar xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi) qo‘llanildi. Mazkur xolatlar bo‘yicha aloqador shaxslar bilan profilaktik suxbatlar amalga oshirildi.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlari faolashgan, lekin bundan yuqori darajagi ko‘tarish imkoniyatlar mavjud.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini xududiy va tarkibiy tashkilotlarda faollashtirish talab etiladi.

Komplayens nazorat
bo‘limi boshlig‘i

 J. Xolmurzayev

**“O‘ztransgaz” AJda 2023-yil Korrupsiyaga qarshi davlat dasturida nazarda tutilgan
chora-tadbirlarning ijrosi haqida
HISOBOT**

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Amalga oshirilgan choralar
1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2022 yilgi PQ-81-sonli Qarorini ijrosi ta‘minlash	10.01.2023 yil	Ma‘lumotlar “E-antikor.uz” platformasiga joylashtirildi. Reyting baholash bo‘yicha 73 ball olindi.
2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yilgi PQ-240-sonli Qarorini ijrosi ta‘minlash	01.03.2023 yil	Ma‘lumotlar “E-antikor.uz” platformasiga joylashtirildi.
3	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.06.2021 yilgi PF-6247-sonli va 14.06.2022 yilgi PF-154-sonli Farmonlarini ijrosi ta‘minlash	01.03.2023 yil	Ma‘lumotlar “O‘ztransgaz” AJning rasmiy veb-saytlariga joylashtirildi. Reyting baholash bo‘yicha 59,2 ball olindi.
4	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2022 yilgi PQ-81-sonli Qarorini ijrosi ta‘minlash	10.04.2023 yil	Ma‘lumotlar “E-antikor.uz” platformasiga joylashtirildi.
5	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2022 yilgi PQ-81-sonli Qarorini ijrosi ta‘minlash	10.07.2023 yil	Ma‘lumotlar “E-antikor.uz” platformasiga joylashtirildi.

**Komplayens nazorat bo‘limi
boshlig‘i v.v.b.**



J.Xolmurzayev